

SCIENCE
PROBLEMS.UZ

ISSN 2181-1342

Actual problems of social and humanitarian sciences
Актуальные проблемы социальных и гуманитарных наук

**Ijtimoiy-gumanitar
fanlarning dolzarb
muammolari**

3-son (5-jild)

2025

SCIENCEPROBLEMS.UZ

**IJTIMOIIY-GUMANITAR FANLARNING
DOLZARB MUAMMOLARI**

№ 3 (5) - 2025

**АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО-
ГУМАНИТАРНЫХ НАУК**

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

TOSHKENT-2025

BOSH MUHARRIR:

Isanova Feruza Tulqinovna

TAHRIR HAY'ATI:

07.00.00- TARIX FANLARI:

Yuldashev Anvar Ergashevich – tarix fanlari doktori, siyosiy fanlar nomzodi, professor, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi;

Mavlanov Uktam Maxmasabirovich – tarix fanlari doktori, professor, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi;

Xazratkulov Abror – tarix fanlari doktori, dotsent, O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti.

Tursunov Ravshan Normuratovich – tarix fanlari doktori, O'zbekiston Milliy Universiteti;

Xolikulov Axmadjon Boymahammadovich – tarix fanlari doktori, O'zbekiston Milliy Universiteti;

Gabrielyan Sofya Ivanovna – tarix fanlari doktori, dotsent, O'zbekiston Milliy Universiteti.

Saidov Sarvar Atabullo o'g'li – katta ilmiy xodim, Imom Termiziy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi, ilmiy tadqiqotlar bo'limi.

08.00.00- IQTISODIYOT FANLARI:

Karlibayeva Raya Xojabayevna – iqtisodiyot fanlari doktori, professor, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti;

Nasirxodjayeva Dilafuz Sabitxanovna – iqtisodiyot fanlari doktori, professor, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti;

Ostonokulov Azamat Abdukarimovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor, Toshkent moliya instituti;

Arabov Nurali Uralovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor, Samarqand davlat universiteti;

Xudoyqulov Sadirdin Karimovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti;

Azizov Sherzod O'ktamovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent, O'zbekiston Respublikasi Bojxona instituti;

Xojayev Azizxon Saidaloxonovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent, Farg'ona politexnika instituti

Xolov Aktam Xatamovich – iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi;

Shadiyeva Dildora Xamidovna – iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent v.b, Toshkent moliya instituti;

Shakarov Qulmat Ashirovich – iqtisodiyot fanlari

nomzodi, dotsent, Toshkent axborot texnologiyalari universiteti

09.00.00- FALSAFA FANLARI:

Hakimov Nazar Hakimovich – falsafa fanlari doktori, professor, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti;

Yaxshilikov Jo'raboy – falsafa fanlari doktori, professor, Samarqand davlat universiteti;

G'aybullayev Otabek Muhammadiyevich – falsafa fanlari doktori, professor, Samarqand davlat chet tillar instituti;

Saidova Kamola Uskanbayevna – falsafa fanlari doktori, "Tashkent International University of Education" xalqaro universiteti;

Hoshimxonov Mo'min – falsafa fanlari doktori, dotsent, Jizzax pedagogika instituti;

O'roqova Oysuluv Jamoliddinovna – falsafa fanlari doktori, dotsent, Andijon davlat tibbiyot instituti, Ijtimoiy-gumanitar fanlar kafedrasini mudiri;

Nosirxodjayeva Gulnora Abdukaxxarovna – falsafa fanlari nomzodi, dotsent, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Turdiyev Bexruz Sobirovich – falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent, Buxoro davlat universiteti.

10.00.00- FILOLOGIYA FANLARI:

Axmedov Oybek Saporbayevich – filologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti;

Ko'chimov Shuxrat Norqizilovich – filologiya fanlari doktori, dotsent, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Hasanov Shavkat Ahadovich – filologiya fanlari doktori, professor, Samarqand davlat universiteti;

Baxronova Dilrabo Keldiyorovna – filologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti;

Mirsanov G'aybullo Qulmurodovich – filologiya fanlari doktori, professor, Samarqand davlat chet tillar instituti;

Salaxutdinova Musharraf Isamutdinovna – filologiya fanlari nomzodi, dotsent, Samarqand davlat universiteti;

Kuchkarov Raxman Urmanovich – filologiya fanlari nomzodi, dotsent v/b, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Yunusov Mansur Abdullayevich – filologiya fanlari nomzodi, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi;

Saidov Ulugbek Aripovich – filologiya fanlari nomzodi, dotsent, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi.

12.00.00- YURIDIK FANLAR:

Axmedshayeva Mavlyuda Axatovna – yuridik fanlar doktori, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Muxitdinova Firyuza Abdurashidovna – yuridik fanlar doktori, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Esanova Zamira Normurotovna – yuridik fanlar doktori, professor, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan yurist, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Hamroqulov Bahodir Mamasharifovich – yuridik fanlar doktori, professor v.b., Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti;

Zulfiqorov Sherzod Xurramovich – yuridik fanlar doktori, professor, O'zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti;

Xayitov Xushvaqt Saparbayevich – yuridik fanlar doktori, professor, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi;

Asadov Shavkat G'aybullayevich – yuridik fanlar doktori, dotsent, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi;

Ergashev Ikrom Abdurasulovich – yuridik fanlari doktori, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Utemuratov Maxmut Ajimuratovich – yuridik fanlar nomzodi, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Saydullayev Shaxzod Alixanovich – yuridik fanlar nomzodi, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Hakimov Komil Baxtiyarovich – yuridik fanlar doktori, dotsent, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Yusupov Sardorbek Baxodirovich – yuridik fanlar doktori, dotsent, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Amirov Zafar Aktamovich – yuridik fanlar doktori (PhD), O'zbekiston Respublikasi Sudyalar oliy kengashi huzuridagi Sudyalar oliy maktabi;

Jo'rayev Sherzod Yuldashevich – yuridik fanlar nomzodi, dotsent, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Babadjanov Atabek Davronbekovich – yuridik fanlar nomzodi, dotsent, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Normatov Bekzod Akrom o'g'li — yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Rahmatov Elyor Jumaboyevich — yuridik fanlar nomzodi, Toshkent davlat yuridik universiteti;

13.00.00- PEDAGOGIKA FANLARI:

Xashimova Dildarxon Urinboyevna – pedagogika fanlari doktori, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Ibragimova Gulnora Xavazmatovna – pedagogika fanlari doktori, professor, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti;

Zakirova Feruza Maxmudovna – pedagogika fanlari doktori, Toshkent axborot texnologiyalari universiteti huzuridagi pedagogik kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tarmoq markazi;

Kayumova Nasiba Ashurovna – pedagogika fanlari doktori, professor, Qarshi davlat universiteti;

Taylanova Shoxida Zayniyevna – pedagogika fanlari doktori, dotsent;

Jumaniyozova Muhayyo Tojiyevna – pedagogika fanlari doktori, dotsent, O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti;

Ibraximov Sanjar Urunbayevich – pedagogika fanlari doktori, Iqtisodiyot va pedagogika universiteti;

Javliyeva Shaxnoza Baxodirovna – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), Samarqand davlat universiteti;

Bobomurotova Latofat Elmurodovna — pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), Samarqand davlat universiteti.

19.00.00- PSIXOLOGIYA FANLARI:

Karimova Vasila Mamanosirovna – psixologiya fanlari doktori, professor, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti;

Hayitov Oybek Eshboyevich – Jismoniy tarbiya va sport bo'yicha mutaxassislarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti, psixologiya fanlari doktori, professor

Umarova Navbahor Shokirovna– psixologiya fanlari doktori, dotsent, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti, Amaliy psixologiyasi kafedrasi mudiri;

Atabayeva Nargis Batirovna – psixologiya fanlari doktori, dotsent, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti;

Shamshetova Anjim Karamaddinovna – psixologiya fanlari doktori, dotsent, O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti;

Qodirov Obid Safarovich – psixologiya fanlari doktori (PhD), Samarkand viloyat IIB Tibbiyot bo‘limi psixologik xizmat boshlig‘i.

22.00.00- SOTSILOGIYA FANLARI:

Latipova Nodira Muxtarjanovna – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O‘zbekiston milliy universiteti kafedra mudiri;

Seitov Azamat Po‘latovich – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O‘zbekiston milliy universiteti;

Sodiqova Shohida Marxaboyevna – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O‘zbekiston xalqaro islom akademiyasi.

23.00.00- SIYOSIY FANLAR

Nazarov Nasriddin Ataqulovich –siyosiy fanlar doktori, falsafa fanlari doktori, professor, Toshkent arxitektura qurilish instituti;

Bo‘tayeov Usmonjon Xayrullayevich –siyosiy fanlar doktori, dotsent, O‘zbekiston milliy universiteti kafedra mudiri.

OAK Ro‘yxati

Mazkur jurnal Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi Rayosatining 2022-yil 30-noyabrdagi 327/5-son qarori bilan tarix, iqtisodiyot, falsafa, filologiya, yuridik va pedagogika fanlari bo‘yicha ilmiy darajalar yuzasidan dissertatsiyalar asosiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro‘yxatiga kiritilgan.

“Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari” elektron jurnali 2020-yil 6-avgust kuni 1368-sonli guvohnoma bilan davlat ro‘yxatiga olingan.

Muassis: “SCIENCEPROBLEMS TEAM” mas’uliyati cheklangan jamiyati

Tahririyat manzili:

100070. Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Kichik Beshyog‘och ko‘chasi, 70/10-uy. Elektron manzil:

scienceproblems.uz@gmail.com

Bog‘lanish uchun telefon:

(99) 602-09-84 (telegram).

MUNDARIJA

07.00.00 – TARIX FANLARI

<i>Mansurov Ulug'bek Umarovich</i> FARG'ONA VODIYSI SHAHARLARIDA TIBBIYOT TIZIMIDAGI O'ZGARISHLAR (1917-1990-YILLAR)	12-20
<i>Yuldashev Ulugbek Kadirjanovich</i> O'ZBEKISTONDA PROFESSIONAL TA'LIM BOSQICHIDA DUAL TA'LIM SHAKLINING JORIY QILINISHI TARIXI	21-27
<i>Bobobekova Nargiza Ismatullayeva</i> JIZZAX VILOYATI SOG'LIQNI SAQLASH TIZIMI FAOLIYATI TARIXI (XIX ASR IKKINCHI YARMI - XX ASR BOSHLARI)	28-33
<i>Esanova Nilufar</i> MUSTAQILLIK YILLARIDA O'ZBEKISTONNING YENGIL SANOAT SOHASINI RIVOJLANTIRISHDA XORIJIY MAMLAKATLAR BILAN HAMKORLIGI	34-37
<i>Tursunov Bekzot Yandashevich</i> QO'QON XONLIGI QO'SHININING QUROL-ASLAHALARIGA OID	38-45
<i>Давлетмуратов Куралбай Хожамуратович</i> АНТИЧНЫЕ И СРЕДНЕВЕКОВЫЕ ЗООМОРФНЫЕ МЕТАЛЛИЧЕСКИЕ ИЗДЕЛИЯ ХОРЕЗМА	46-52
<i>Raximov Bektosh, Tashmuradov Umidbek</i> AMIR TEMUR VA TEMURIYLAR DAVRIDA TASHQI DIPLOMATIK ALOQALARNING DAVLAT SIYOSIY TARAQQIYOTIDAGI AHAMIYATI	53-57
<i>Otaxanov Alisher Mamadaliyevich</i> TEMURIY MALIKALARNING ILM-FAN VA IJTIMOYIY TARAQQIYOTGA QO'SHGAN HISSALAR	58-64
<i>Xakimov Ravshan Raimovich</i> MIRZACHO'LNING ETNOEKOLOGIK MUAMMOLARI	65-74
<i>Ergashev Jahongir Yunus o'g'li</i> TURK XOQONLIGINING BOSHQARUVIDA IMPERIYACHILIK XUSUSIYATLARINING O'ZIGA XOS JIHATLARI	75-82

08.00.00 – IQTISODIYOT FANLARI

<i>Gabriel Ayodeji Ogunmola</i> ЦИФРОВОЙ ДИВИДЕНД: ИЗУЧЕНИЕ ПОТЕНЦИАЛА ЦИФРОВОЙ ТРАНСФОРМАЦИИ ДЛЯ УСТОЙЧИВОГО ЭКОНОМИЧЕСКОГО РАЗВИТИЯ В УЗБЕКИСТАНЕ	83-96
<i>Abdullayev Altinbek Yangibayevich</i> KORXONANING KOMPLEKS ISHLAB CHIQRARISH XARAJATLARI VA QO'SHIMCHA MAHSULOT ISHLAB CHIQRARISH HISOBINI YURITISHNING USLUBIY ASOSLARINI TAKOMILLASHTIRISH	97-113
<i>Komolov Odiljon Sayfidinovich</i> KREDIT TASHKILOTLARINI SOLIQQA TORTISH AMALIYOTINING TAHLILI	114-123

<i>Shaislamova Nargiza Kabilovna</i> MAMLAKAT IQTISODIYOTI BARQARORLIGINI TA'MINLASHDA QAYTA TIKLANUVCHI ENERGIYA MANBALARINING ROLI	124-134
<i>Qo'chqarov Baxtiyor Xoshimjanovich</i> KICHIK BIZNES SUBYEKTLARINING AYLANMA MABLAG'LARINI SHAKLLANTIRISH VA UN DAN SAMARALI FOYDALANISH USULLARI	135-147
<i>Abdimurodov Baxrom, Abdimurodov Bahodir</i> AKSIYADORLIK JAMIYATLARIDA XODIMLARGA HAQ TO'LANADIGAN HAR YILGI MEHNAT TA'TILINI RASMIYLASHTIRISHNI TAKOMILLASHTIRISH	148-152
<i>Matkarimov Inomjon, Yuldashbayev Azizulloh</i> BARQAROR RIVOJLANISH VA YASHIL IQTISODIYOTGA O'TISH	153-158
<i>Исламутдинова Дина Файзрахмановна</i> ТРАНСФОРМАЦИЯ ОРГАНИЗАЦИОННО-ЭКОНОМИЧЕСКОЙ СИСТЕМЫ КОНЕВОДСТВА В УСЛОВИЯХ СОВРЕМЕННОГО РАЗВИТИЯ ЭКОНОМИКИ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАНИ	159-166
<i>Ravshanov Zaxiriddin Ibragimovich</i> OVQATLANISH XIZMATLARI SOHASIDA DAVLAT-XUSUSIY SHERIKLIGINI RIVOJLANTIRISH BORASIDA TAVSIYALAR	167-176
<i>Джуманиязов Уббинияз Исмайл улы</i> ПРИМЕНЕНИЕ ИСКУССТВЕННОГО ИНТЕЛЛЕКТА В СЕЛЬСКОМ ХОЗЯЙСТВЕ КИТАЯ	177-183
<i>To'lakov Ulug'bek Toshmamatovich</i> YERLARNI VAHOLASH VA SOLIQQA TORTISHNING METODOLOGIK ASOSLARINI TAKOMILLASHTIRISH	184-193
09.00.00 – FALSAFA FANLARI	
<i>Xolmirzaev Xurshid Nakibillaevich,</i> IJTIMOIY-KASBIY FAOLIYAT JARAYONIDA SUN'IY INTELLEKTNING INSON SALOHİYATIGA TA'SIRI	194-200
<i>Tashanov Abduxoliq</i> QADIMGI SHARQ MANBALARIDA INSON BUZG'UNCHILIGI HAQIDAGI QARASHLAR ...	201-206
<i>Muhamedov Asror Asadovich</i> UCHINCHI RENESSANS POYDEVORINI YARATISHDA YUSUF XOS HOJIB FALSAFIY MEROSIDAN FOYDALANISH	207-213
<i>Жумаева Шахло Суюновна</i> ВОПРОС ПРАВСТВЕННОГО СОВЕРШЕНСТВА В УЧЕНИИ АХМАДА ЯССАВИ	214-219
<i>Eshonqulov Laziz Norqobul o'g'li</i> HAJVIYLIKNING PSIXOLOGIK IJTIMOIIY-MADANIY VA ESTETIK XUSUSIYATI	220-224
<i>G'ulomov Zuxriddin Baxromjon o'g'li</i> AXBOROTLASHGAN JAMIYATDA YOLG'ON AXABOROTLARNING MAZMUN-MOHİYATI VA KONSEPTUAL ASOSLARI	225-231
<i>Xaitov Lazizbek Azamatovich</i> HAKIM TERMIZIYNING FALSAFIY TA'LIMOTI	232-236

<i>Ortiqov Shahriddin</i> SHAXS ESTETIK ONGI VA MADANIYATNI SHAKLLANTIRISHDA TEATR SAN'ATINING O'RNII	237-241
<i>Toshiboieva Munavar</i> IJTIMOIY-MA'NAVIY MUHIT BARQARORLIGIDA XOTIN-QIZLARNING ISHTIROKI	242-248
<i>Murotov Elyor Narzillo o'g'li</i> YANGI O'ZBEKISTONNING TARAQQIYOT STRATEGIYALARINING UZVIYLIGI VA FALSAFIY TAHLILI	249-255
<i>Soipova Mavjuda Karimjanovna</i> FAZL IBN AHMAD TA'LIMOTIDA NUR VA HARAKAT MASALASI	256-260
<i>Ashurova Xurshida Sag'dullaevna</i> HOJI MUIN ZAMONDOSHI SHOKIR MUXTORINING HAYOTI VA FAOLIYATI HAQIDAGI QARASHLARI	261-264
<i>Karimov Anvarjon Lutfilloyevich</i> IBN SINO FALSAFIY MEROSIDA AXLOQI MASALASI	265-269
<i>Shakambarov Abdurashid Abdujabbarovich</i> MA'NAVIY MARGINALLASHUVDAN HIMOYALANISHDA XORIY TAJRIBASI	270-275
<i>Samadov Jonmurod</i> JALOLIDDIN RUMIY GNOSEOLOGIASINING ZAMONAVIY TAHLILI	276-280
<i>Barnoiev Sanjar Qurbonovich</i> YUSUF HAMADONIYNING INSON VA KOINOT UYG'UNLIGIGA OID TA'LIMOTIDA ME'YOR MASALALARI	281-286
<i>Ярлакабов Джамшид Мамасултонович</i> СВОБОДА И НЕОБХОДИМОСТЬ КАК ВЕКТОРЫ РАЗВИТИЯ ГЛОБАЛЬНОГО ОБЩЕСТВА: РЕАЛИИ И ПЕРСПЕКТИВЫ	287-291
10.00.00 – FILOLOGIYA FANLARI	
<i>Isanova Feruza Tulqinovna</i> INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDA XALQARO HUQUQ SOHASIGA OID LEKSIK BIRLIKLARNING SINXRON TAHLILI	292-297
<i>Xayrullayeva Shahzoda Farhod qizi</i> O'ZBEK VA INGLIZ TILLARIDA SALBIY VA IJOBIIY HIS TUYG'ULARNI LINGVOKULTUROLOGIK TAHLILI	298-303
<i>Tadjiyeva Mastura, Umarxonova Dilafroz</i> INGLIZ VA O'ZBEK MAQOLLARIDA "BOYLIK" VA "FAQIRLIK" KONSEPTLARINING AKSIOLINGVISTIK TAHLILI	304-308
<i>Sharipova Nilufar Shaxrillo qizi</i> ZAMONAVIY DUNYO ADABIYOTIDA XALQ KULGISI ASOSIDA KELIB CHIQQAN YANGI BADIY SHAKLLAR	309-312
<i>Ochilova Gulnoza Farxod qizi</i> NUTQ BIRLIKLARI MASALASINING UMUMIY TILSHUNOSLIKDAGI TALQINI	313-316
<i>Alqarov Nazarbek Alisher o'g'li</i> IT MOTIVINING DUNYO VA O'ZBEK ADABIYOTSHUNOSLIGIDA O'RGANILISHI	317-322

<i>Abdusalomov Firuz Abduxoliqovich</i> HARBIY DISKURSDA BUYRUQNING VOQELANISHI	323-329
<i>Ruzmatova Gulnara Kulmamatovna</i> STYLISTIC AND LINGUACULTUROLOGICAL FEATURES OF IMPLICATURES IN ENGLISH AND UZBEK ANECDOTES	330-333
<i>Safarova Farida, Toshkulova Madinabonu</i> THE STUDY OF TEXT LINGUISTIC	334-337
<i>Amonova Dilshoda Azamat qizi</i> ADABIYOTDA BADIY OBRAZ TUSHUNCHASI VA UNING XUSUSIYATLARI (DEN BRAUNNING "DA VINCHI SIRI" ROMANI MISOLIDA)	338-343
<i>Sultonova Gulchehra Xusanovna</i> INGLIZ VA O'ZBEK TILI NAMUNASI SIFATIDA AFORIZMLARNING MADANIY VA FALSAFIY JIHATLARI	344-348
<i>Makhmudova Mutabar Dustmukhammad kizi,</i> CAUSES OF STREOTYPE OCCURRENCE	349-353
<i>Sadullaeva Matlyuba Akhrorovna,</i> NUMERIC MYSTERIES: THE ROLE OF NUMBERS AND SYMBOLISM IN "THE DA VINCI CODE"	354-359
<i>Khusenova Shosura Toshtemirovna,</i> DOCTORS' ATTITUDES TOWARD LEARNING ENGLISH: A NEEDS ANALYSIS REPORT	360-363
<i>Mamajanova G'uncha, Shakirova Saida</i> EKVIVALENTLIK VA TAFOVUT MEZONLARI ASOSIDA O'ZBEK VA INGLIZ METAFORALARINING QIYOSIY TAHLILI	364-368
<i>Saydullayeva Dilrabo Ilxom qizi</i> SODIQIY AFSHORNING "MAJMA UL-HAVAS" TAZKIRASI VA UNING O'ZBEK TAZKIRASHUNOSLIGIDAGI AHAMIYATI	369-372
12.00.00 - YURIDIK FANLAR	
<i>Hурпеисов Еркеш, Ибраева Алуа, Сманова Акмарал</i> КОНСТИТУЦИОННОЕ РЕГУЛИРОВАНИЕ ТРИАДЫ В ИСТОРИЧЕСКОМ ВЫБОРЕ КАЗАХСТАНА	373-379
<i>Камалов Мансурхон Мухтарович</i> К ВОПРОСУ О КОНФЛИКТЕ ИНТЕРЕСОВ В КОРПОРАТИВНЫХ ОТНОШЕНИЯХ	380-385
<i>Komilov Avazbek Bokijonovich</i> QONUN BUZILISHI, UNING KELIB CHIQISH SABABLARI VA BUNGA IMKONIYAT YARATIB BERAYOTGAN SHART-SHAROITLARNI BARTARAF ETISH TO'G'RISIDAGI PROKUROR TAQDIMNOMASINING MAZMUNI VA UNGA QO'YILGAN TALABLAR	386-394
<i>Xolov Utkir Shomurodovich,</i> QONUNIY KUCHGA KIRGAN SUD HUJJATLARINI YANGI OCHILGAN HOLATLAR BO'YICHA QAYTA KO'RISHNING AYRIM MASALALARI	395-399
<i>Kuldoshev Ulug'bek Otabek o'g'li</i> KASB YUZASIDAN O'Z VAZIFALARINI LOZIM DARAJADA BAJARMASLIK VA XAVF OSTIDA QOLDIRISH JINOYATLARINING SUBYEKTI VA ULARNING FARQLI JIHATLARI	400-407

<i>Ибрагимова Сабина Эркиновна</i> К ВОПРОСУ О ДАЛЬНЕЙШЕЙ ИМПЛЕМЕНТАЦИИ МЕЖДУНАРОДНЫХ СТАНДАРТОВ ПРАВОСУДИЯ НА ДОСУДЕБНОЙ СТАДИИ, В УГОЛОВНО- ПРОЦЕССУАЛЬНОЕ ЗАКОНОДАТЕЛЬСТВО РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН	408-413
<i>Avezov Dilshod Sadulayevich</i> MAHALLIY KENGASH DEPUTATINI CHAQIRIB OLISH MASALALARI VA UNING XUSUSIYATLARI	414-418
<i>Haydarov Jaloliddin Hamza o'g'li</i> VALYUTA QIMMATLIKLARINI QONUNGA XILOF RAVISHDA OLISH YOKI O'TKAZISH JINOYATINING PREDMETI TAHLILI	419-423
<i>Zairov Asadbek Sayfullo o'g'li</i> INKLYUZIV TA'LIMINI TAKOMILLASHTIRISHDA QONUNCHILIK BAZASINING ROLI	424-432
<i>Karimov Bekmurodjon Anvarjonovich</i> BMT INSON HUQUQLARI BO'YICHA SHARTNOMAVIY ORGANLARI TIZIMINI KUCHAYTIRISH	433-442
13.00.00 – PEDAGOGIKA FANLARI	
<i>Jumaniyozova Muhayyo Tojiyevna</i> ZAMONAVIY OLIY TA'LIMDA KREATIVLIKNI TASHXISLASH METODIKALARINI QO'LLASHNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI	443-449
<i>Raxmatov Otabek Urinbosarovich</i> "JISMONIY TARBIYA VA SPORT PEDAGOGIKASI" FANINING BO'LAJAK JISMONIY TARBIYA VA SPORT FAOLIYATI MUTAXASSISLARINI TAYYORLASHDAGI AHAMIYATI	450-455
<i>Xamroyev Samijon Salimovich</i> SPORT TO'GARAGI MAHG'ULOTLARIGA TALABALAR QIZIQISHLARINI SHAKLLANTIRISHDA UZLUKSIZLIKNI TA'MINLASH VOSITALARI	456-461
<i>Berdiyeva Nilufar Ibodullayevna</i> TALABALARDA INSHONING MAZMUNIIY- MANTIQUIY BAYON QILINISHIGA DOIR BILIM, KO'NIKMA VA MALAKALARNI SHAKLLANTIRISH	462-467
<i>Ortiqov Bekruh Baxodir o'g'li</i> ZAMONAVIY VOLEYBOLCHILARNING JISMONIY TAYYORGARLIGI VA BIOMEKANIK XUSUSIYATLARI HAMDA SAMARADORLIKKA TA'SIRI	468-472
<i>Jumayeva Xulkarxon Muxammadjonovna</i> TALABALARNI INVARIANTIV VA VARIATIV TAHDIDLARDAN HIMOYALASHNING PEDAGOGIK STRATEGIYASI	473-480
<i>Avliyaqulov Tolib Xolmurodovich,</i> TALABALAR KASBIY-AXLOQIY TAYYORGARLIGIGA QADRIYATLARGA ASOSLANGAN YONDASHUV	481-486
<i>O'tashev Xasan Nematullayevich</i> OLIIY TA'LIM MUASSASASIDA SPORT ISHLARINING USTUVOR VAZIFASI SIFATIDA SPORT MADANIYATINI SHAKLLANTIRISHNING MUHIM JIHATLARI	487-492
<i>Axmadjanov Doniyor Baxtiyor o'g'li</i> BO'LAJAK TARIX O'QITUVCHISINING AXLOQIY YETAKCHILIGI VA KASBIY FAZILATLARI	493-500

<i>Mengliyev Bobur Normamatovich</i> O'QITUVCHILARNI PEDAGOGIK KOMPETENTLIGINI TAHLIL QILISH USULLARI	501-507
<i>Gafforov Alisher Xolmurodovich</i> PROFESSIONAL TA'LIM MUASSASALARI RAQAMLI TA'LIM RESURLARINI LOYIHALASH, TIZIMLASHTIRISH VA UNING MAZMUNI	508-518
<i>Qurbonova Bonu Quvondiq qizi</i> BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARINI KITOBGA QIZIQTIRISH: SAMARALI USULLAR VA ZAMONAVIY YONDASHUVLAR	519-524
<i>Zubaydullayev O'ktam Raim o'g'li</i> O'QUVCHI SHAXSINI SHAKLLANTIRISHDA SAN'ATNING O'RNI	525-529
<i>Raximov Nurillo Narzullaevish</i> BO'LAJAK MUSIQA O'QITUVCHISINI KASBIY-PEDAGOGIK FAOLIYATGA TAYYORLASH: MUAMMO VA YECHIMLAR	530-538
<i>Ergashova Munisa Hoshim qizi</i> MUSTAQIL TA'LIMNI O'YINLAR ORQALI TASHKIL ETISH	539-543
<i>Nuriddinova Madina, Nuriddinov Muhriddin</i> USING WIKI-TECHNOLOGY TO IMPROVE STUDENTS' WRITING COMPETENCE	544-552
<i>Kalekeeva Sarbinaz Turkmenbaevna,</i> O'QUVCHILARNING MANTIQUIY FIKRLASHINI RIVOJLANTIRISHGA QARATILGAN ZAMONAVIY YONDASHUVLAR	553-560
<i>Nasriddinova Hulkar Komiljonovna,</i> RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNING BOSHLANG'ICH SINFLAR MATEMATIKA TA'LIMIDA QO'LLANILISHI IMKONIYATLARI	561-565
<i>Evatov Saminjon Sobirovich</i> JAMOAVIY FAOLIYATNI TASHKEL ETISH ASOSIDA O'QUVCHILARNING KOMMUNIKATIV QOBILIYATINI RIVOJLANTIRISH	566-572
<i>Samatova Shohsanam Xolmuhammad qizi</i> BO'LAJAK O'QITUVCHILARDA KOGNITIV YONDASHUV ASOSIDA TIZIMLI FIKRLASHNI SHAKLLANTIRISH TAMOYILLARI	573-577
<i>Idrisov Mironshoh Ilyos o'g'li</i> TALABALARNI JISMONIY TARBIYA, SPORT VA TURIZM VOSITALARI BILAN SOG'LOMLASHTIRISH TIZIMINI SHAKLLANTIRISH MUAMMOLARI	578-582
<i>Nasriddinova Nilufar Shuxrat qizi</i> 1-SINF ONA TILI DARSLARIDA INNOVATSION TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISHNING INTENSIVLIGINI TA'MINLASH METODIKASI	583-587
<i>Yavkochdiyeva Dilafruz</i> TALABALARNI PEDAGOGIK KASBIY FAOLIYATGA TAYYORLASHDA "STAATE" INNOVATSION TEXNOLOGIYASIDAN FOYDALANISH	588-593

Received: 16 February 2025

Accepted: 5 March 2025

Published: 20 March 2025

Article / Original Paper

THE SUBJECT OF CRIMES RELATED TO FAILURE TO PERFORM PROFESSIONAL DUTIES AND LEAVING A PERSON IN DANGER AND THEIR DIFFERENCES

Kuldoshev Ulugbek,

Master's student of the Law Enforcement Academy

"Investigative Activities"

Abstract. This article examines the issues of qualifying crimes related to the failure to perform professional duties and leaving a person in danger, the range of subjects of these crimes, the characteristics of the general and special subjects, the existing differences between the subjects of both crimes, as well as the issues of their identification and proper qualification. Additionally, conclusions and proposals regarding the determination of the subject of these crimes are presented.

Keywords: professional duties, improper performance of official duties, medical assistance, danger, subject, special subject, obligation, consequences, care.

KASB YUZASIDAN O'Z VAZIFALARINI LOZIM DARAJADA BAJARMASLIK VA XAVF OSTIDA QOLDIRISH JINOYATLARINING SUBYEKTI VA ULARNING FARQLI JIHLTLARI

Kuldoshev Ulug'bek Otabek o'g'li

Huquqni muhofaza qilish akademiyasi magistraturasi

"Tergov faoliyati" mutaxassisligi tinglovchisi

E-mail: ulugbekkuldoshev5388@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada kasb yuzasidan o'z vazifalarini bajarmaslik va xavf ostida qoldirish bilan bog'liq jinoyatlarni kvalifikatsiya qilish masalalari, mazkur jinoyatlarning subyektlari doirasi, umumiy subyekt va maxsus subyektlarning o'ziga xos jihatlari, har ikkala jinoyat subyekti o'rtasidagi mavjud farqlar, ularni aniqlash va to'g'ri malakalash masalalari tahlil qilingan. Shuningdek, mazkur jinoyatlarning subyekti bo'yicha xulosa va takliflar bayon qilingan.

Kalit so'zlar: kasb majburiyati, kasb yuzasidan o'z vazifalarni lozim darajada bajarmaslik, tibbiy yordam, xavf, subyekt, maxsus subyekt, majburiyat, oqibat, g'amxo'rlik.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V5I3Y2025N60>

Jinoyat huquqi nazariyasidan ma'lumki, jinoyatning subyekti jinoyat tarkibining zaruriy belgilaridan biri hisoblanadi. Jinoyat huquqiga binoan jinoyat qonuni bilan taqiqlangan ijtimoiy xavfli qilmish (harakat yoki harakatsizlik)ni sodir etgan va uning uchun jinoiy javobgar bo'la oladigan shaxs jinoyatning subyekti deb e'tirof etiladi [1; B.149.].

Biz quyida tahlil qiladigan kasb yuzasidan o'z vazifalarini lozim darajada bajarmaslik va xavf ostida qoldirish jinoyatlarining subyektlari ham maxsus subyekt hisoblanib, quyida ularning bir-biriga o'xshash va farqli jihatlarni ko'rib chiqamiz.

Jinoyat kodeksi (JK)ga ko'ra kasb yuzasidan o'z vazifalarini bajarmaslik jinoyati subyekti maxsus subyekt hisoblanib, mazkur jinoyatning subyekti umumiy subyekt belgilardan tashqari muayyan kasb bilan shug'ullangan bo'lishini ham nazarda tutadi. Kasb deganda odatda faoliyatning muayyan turi bilan shug'ullanish tushunilib, JKda aynan qaysi kasb egalari mazkur jinoyat subyekti bo'la olishi mumkinligi aniq belgilanmagan va mazkur holat bizga ushbu jinoyat subyekti sifatida barcha kasb vakillarini (oshpaz, shifokor, yong'in xavfsizligi xodimi, elektr xodimi, muhandis va b.q.) e'tirof etish mumkinligi haqidagi normani belgilaydi.

M.X.Rustambayev tomonidan ham kasb yuzasidan o'z vazifalarini bajarmaslik jinoyatining subyekti o'ziga kasbi bilan bog'liq muayyan vazifalar yuklangan har qanday shaxs bo'lishi mumkinligi haqida tushuntirish berilgan [2; B.114.].

Shuningdek, JKda qonun yoki boshqa maxsus qoidalarga asosan kasalga yordam ko'rsatishi shart bo'lganlar deganda, bir muncha kengroq doiradagi shaxslarni nazarda tutadi. Bunday shaxslarga maxsus tibbiy bilimga ega bo'lmagan, lekin majburiyatiga ko'ra kasalga qarovchi shaxslar ham bo'lishi mumkin [3; B.40.]. Ushbu shaxslar toifasiga ichki ishlar organlari, yong'indan muhofaza qilish, qutqaruv xizmati xodimlari va boshqalarni ham kiritish mumkin.

JKning 116-moddasi birinchi qismi subyekti barcha kasb vakillarini bo'lishi mumkinligini nazarda tutsa, ikkinchi qismi subyekti faoliyati kasallar bilan bog'lik kasb egalari asosan tibbiyot xodimlari bo'lishi mumkinligini belgilaydi. Bunda JKning 116-moddasi ikkinchi qismi faqat tibbiyot xodimlari uchun javobgarlikni belgilaydi degan fikrga kelish kerak emas albatta. Chunki, "kasal" bu tibbiyot muassasasida davolanayotgan shaxs ham, yoki ko'chada sog'lig'i yomonlashib qolgan shaxs ham bo'lishi mumkin bo'lib, JKda "kasal" tushunchasiga aniq tasnif berilmagan.

Mazkur modda bo'yicha jinoyat subyekti doirasini aniqlashda qonun chiqaruvchi tomonidan jabrlanuvchilar doirasi cheklanib, jabrlanuvchi doirasi faqat kasallar sifatida belgilanganligiga ham e'tibor qaratish lozim. Bunda qonun chiqaruvchi jabrlanuvchi sifatida hayoti yoki sog'lig'i xavf ostida qolgan har qanday shaxsni emas balki kasallarni nazarda tutadi va odatda kasal sifatida bemor sifatida tibbiyot muassasalarida davolanayotgan yoki murojaat qilib borgan shaxslar tushuniladi.

Shu bilan birga, JKda "kasb" yoki "kasb vazifalari" tushunchalariga aniq tushuntirish berilmagan va mazkur holat jinoyat subyekti doirasini aniqlash hamda jinoyatlarni kvalifikatsiya qilishda bir qator muammolarni keltirib chiqaradi. Chunki ijtimoiy munosabatlar rivojlanish bosqichida bir qator yangi mashg'ulot va xizmat ko'rsatish turlari vujudga kelib, takomillashib bormoqdaki, aynan qaysi xizmat yoki mashg'ulot turlari kasb hisoblanishi yoki hisoblanmasligi haqida tushunmovchiliklar paydo bo'lmoqda. Sababi JKda ma'lum bir xizmat yoki mashg'ulot turini kasb sifatida e'tirof etishimiz uchun qanday talablar (mutaxassislik (muayyan o'quv yurtini tamomlaganlik), tajriba, litsenziya, ma'lum bir tashkiliy huquqiy shaklga ega bo'lganlik) mavjud bo'lishi lozimligi aniq belgilanmagan.

A.V.Naumov tomonidan "kasb" tushunchasi shaxsning doimiy ravishda muayyan mehnat faoliyatini amalga oshirishini anglatishi va bu faoliyat jinoyat qonunchilik nuqtai nazaridan jinoyat subyektlarini farqlashda ahamiyatga ega bo'lishi [4; B.132.]. haqida tushuntirish berilgan.

S.V.Borodin tomonidan “kasb vazifalari” tushunchasi shaxsning xizmat yoki mehnat munosabatlari doirasidagi majburiyatlarini o‘z ichiga olishi [5; B.45.]. haqida tushuntirish berilgan.

Fikrimizcha, “kasb” va “kasb vazifalari” va “kasal” tushunchalariga JKda aniq izoh berilishi JKning 116-moddasi subyektlari doirasini aniqlashda, mazkur modda subyektini boshqa modda subyektlaridan farqlashga ko‘maklashib, bir xil huquqni qo‘llash amaliyotini yaratgan bo‘lar edi.

JK 117-moddasi subyektini tahlil qilar ekanmiz, qonun chiqaruvchi mazkur jinoyat subyektini umumiy belgilarga (jismoniy shaxs, aqli rasolik, 16 yoshga yetganlik) ega bo‘lishi bilan bir qatorda maxsus subyekt bo‘lishini belgilab, uning hayoti yoki sog‘lig‘i xavf ostida qolgan va o‘zini o‘zi himoya qilish imkoniyatidan mahrum bo‘lgan shaxsga yordam berishi shart va bunday imkoniyatga ega bo‘lishligini yoki jabrlanuvchini xavfli holatga tushirgan bo‘lishi lozimligini nazarda tutadi. Shunga ko‘ra JKda belgilangan xavf ostida qoldirish jinoyati subyektini shartli ravishda ikki turga bo‘lishimiz mumkin. Birinchi turida jinoyat subyektini umumiy belgilardan tashqari qonunchilik talablari asosida hayoti yoki sog‘lig‘i xavf ostida qolgan shaxsga yordam ko‘rsatishi shart qilib qo‘yilgan shaxs hisoblanadi. Masalan, tibbiyot va farmatsevtika xodimlari fuqarolarga tibbiy yordam ko‘rsatishlari shartligi belgilangan [6; M.30.]. bo‘lib, ular tomonidan ushbu majburiyatni bajarmasliklari JKning 117-moddasida belgilangan javobgarlikni keltirib chiqaradi. Bunda yordam berishning shart qilib qo‘yilishi kasb bilan bog‘liq majburiyatdan emas, balki qonunchilik talablari asosida yordam ko‘rsatish shartligini nazarda tutiladi.

Shuningdek, M.H.Rustamboyev tomonidan ushbu moddaning subyektini tushunchasiga berilgan sharhda JKda belgilangan yordam berish shartligi tushunchasi g‘amxo‘rlik qilish lozim bo‘lgan shaxslar sifatida tariflab o‘tilgan bo‘lib, bizning fikrimizcha, “g‘amxo‘rlik qilish” va “yordam ko‘rsatish” shart bo‘lgan shaxslar doirasi bir xil emas. “G‘amxo‘rlik qilish” tushunchasi ko‘proq oilaviy munosabatlar bilan yoki qarindoshlik aloqalari bilan cheklanib, qonunchilikda nazarda belgilangan yordam ko‘rsatish shartligi haqidagi normadan farq qiladi va bunday sharhlash jinoyat subyektini aniqlash va jinoyatni malakalashda chalkashliklarga olib keladi.

Shuni ham nazarda tutish kerakki, JK 117-moddasida jinoyat subyektini zimmasida axloqiy emas, balki normativ mazmunga ega majburiyat nazarda tutilgan bo‘ladi. Ya‘ni biror Qonun yoki qonunosti hujjatlariga asosan ma‘lum toifadagi shaxslarga hayoti yoki sog‘lig‘i xavf ostida qolgan shaxsga yordam berish majburiyati va shartligi yuklatilgan bo‘ladi. Masalan, onasi tomonidan ko‘chada sovuqda tashlab ketilgan 3 kunlik chaqaloqni topib olib, unga yordam ko‘rsatmagan fuqaro JKning 117-moddasi subyektini bo‘lmasligi mumkin, biroq, ushbu chaqaloqni topib olib, unga yordam ko‘rsatmagan shifokor mazkur modda bo‘yicha chaqaloqning onasi kabi javobgarlikka tortiladi.

Amaldagi JKda xavf ostida qoldirish jinoyati subyektini jabrlanuvchiga nisbatan aniq huquqiy majburiyatlarga ega bo‘lishi nazarda tutgan bir vaqtda, jinoyat huquqi sohasidagi ko‘plab huquqshunos olimlar xavf ostida qoldirish jinoyati subyektini doirasini kengaytirish haqidagi fikrlarni ilgari surishadi.

Xususan, S.I.Molchanova hayoti uchun xavfli ahvolda bo‘lgan shaxsga o‘zi uchun xavf-xatarsiz yordam ko‘rsatish imkoniyatiga ega bo‘lgani holda bunday yordamni ko‘rsatmagan shaxsning harakatsizligi faqatgina axloqsiz qilmish emas, balki jinoyat hisoblanishi kerak.

Bunda jinoyat faqatgina ayblanuvchi g'amxo'rlik qilishi lozim bo'lgan shaxslar doirasi bilan emas, balki bunday harakatsizlik inson o'limiga sabab bo'lgan har qanday shaxslarni qamrab olishi zarurligi haqidagi fikrni ilgari suradi [7; B.430-431.].

Ya.A.Мыс xavf ostida qoldirish subyektlari doirasini kengaytirish ijtimoiy asoslangan, yuridik jihatdan oqlangan va zarur hisoblanishi, ushbu qilmish uchun jinoiy javobgarlikni belgilash nafaqat insonlar xulq-atvorining muhim tartibga soluvchisi, balki jamiyatning mavjud bo'lishi va normal rivojlanishini ta'minlash maqsadini ko'zlashi, shaxsni takomillashtirishga yo'naltirilgan yirik tarbiyaviy, axloqiy ta'sirga ega ekanligi haqidagi fikrni ilgari suradi [8; B.33-34.].

Bir qator davlatlarning jinoyat qonunchiligida mazkur jinoyat subyekti doirasini kengaytirish bilan bog'liq yondashuv qabul ham qilingan. Jumladan, Belarus JKning 159-moddasi birinchi qismida, Ukraina JKning 136-moddasida, Bolgariya JKning 139-moddasida, San-Marino JKning 160, 162, 166-moddalarida, Shveysariya JKning 128-moddasida xavf ostida qoldirish jinoyati subyekti umumiy qilib belgilangan, ya'ni jinoyat subyekti jabrlanuvchi bilan g'amxo'rlik ko'rsatish, himoya qilish, yordam ko'rsatish kabi majburiyatlar bilan bog'lanmagan [9; B.70.].

Olimlarning ilmiy nazariy qarashlari hamda xorijiy davlatlar tajribasiga ko'ra, bizningcha, xavf ostida qoldirish jinoyatining subyekti sifatida faqat qonunchilik hujjatlarida yordam ko'rsatishi shart qilib belgilangan shaxslarni emas, balki yordam ko'rsatish imkoniyatiga ega bo'lgan boshqa shaxslarni ham xavf ostida qoldirish jinoyati subyekti sifatida belgilash maqsadga muvofiq bo'lar edi. Chunki, insonparvarlik tamoyiliga asosan, xavf ostida qolgan shaxsga yordam berish faqat qonun bilan belgilangan majburiyat emas, balki umuminsoniy axloqiy burch hamdir.

Xavf ostida qoldirish jinoyati subyektning ikkinchi turi – jabrlanuvchini xavfli holatga tushirgan shaxs hisoblanib, bunday shaxs jabrlanuvchiga yordam ko'rsatishga majbur, hatto u jabrlanuvchiga oldin g'amxo'rlik qilish majburiyatiga ega bo'lmagan taqdirda ham. Bunda shaxsning bu harakat yoki harakatsizligi (ya'ni jabrlanuvchini xavfga qo'yishi) ongli ravishda amalga oshirilgan bo'lishi kerak. Mazkur qoida bo'yicha xavf ostida qoldirish jinoyatining subyekti jinoyat huquq nazariyasida aniq belgilanmagan bo'lib, jinoyat ishi holatlaridan kelib chiqadi. Jinoyat qonunchiligida xavf ostida qoldirish jinoyatining subyektiga bir holatda, yo'l-transport jinoyatlari bilan bog'liq holda tushuntirish berilgan bo'lib, O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 12.12.1996-yildagi qaroriga ko'ra yo'l-transport hodisasini sodir etishda aybdor jabrlanuvchining hayoti yoki sog'lig'i xavf ostida qolganligini bila turib, yordamsiz qoldirishi JK 266 va 117-moddalarining tegishli qismlari asosida jinoyatlar majmui bo'yicha javobgarlikka tortilishi lozimligi belgilangan.

N.G.Aleksandrov tomonidan xavf ostida qoldirish jinoyati subyekti kasbiy majburiyatlari bo'yicha, lavozimi bo'yicha, shaxsning jabrlanuvchiga nisbatan alohida maqomi bo'yicha, jinoyat sodir etish vaqtida bajarilayotgan qilmishning xususiyati bo'yicha ham tasniflanadi [10; B.12-13.].

Bizning fikrimizcha, xavf ostida qoldirish jinoyati subyektining kasbiy majburiyatlari yoki lavozim majburiyatlarini bajarmasligi JKning 116-moddasida ahamiyatli hisoblanib, JKning 117-moddasi kasb yoki lavozim majburiyatlarini bajarmaslik uchun javobgarlikni nazarda tutmaydi. Xavf ostida qoldirish jinoyat subyekti yordam ko'rsatish kasbiy majburiyati bo'lgan va kasb yuzasidan o'z vazifalarini bajarmagan yoki lozim darajada bajarmagan, shu

jumladan, qonun yoki maxsus qoidalarga muvofiq kasbiy faoliyati yuzasida kasalga yordam ko'rsatishi shart bo'lgan, biroq uzrli sababsiz shunday yordam ko'rsatmagan shaxslar bo'la olmaydi. Bu harakatlar JK 116-moddasi bo'yicha javobgarlikni keltirib chiqaradi. Mazkur holatdan kasb egalari faqat JKning 116-moddasi bo'yicha javobgar bo'lishlari, JKning 117-moddasi bo'yicha subyekt bo'lmasliklari haqida xulosaga kelish to'g'ri bo'lmaydi, albatta.

Shu bilan birga, kasb majburiyatlarini bajarmaganlik va xavf ostida qoldirish jinoyatlari subyekti sifatida tibbiyot xodimlarini tahlil qilishda olimlar o'rtasida yagona pozitsiya hali shakllanmaganligini qayd etish joiz.

Bu borada bir qancha bahs-munozarali fikrlar bildirilganligini ko'rish mumkin. Jumladan, A.V.Naumova tibbiyot xodimlari o'z xizmat vazifalarini bajarayotgan vaqtlarida ham undan tashqari vaqtda ham kasb majburiyatlarini bajarmaganlik jinoyati subyekti bo'lishi haqidagi fikrni ilgari suradi [11; B.328.].

Biroq Yu.A.Vlasev buni rad qilgan holda o'z xizmat vazifalariga bog'liq bo'lmagan holda kasalga yordam bermagan tibbiyot xodimlari kasb majburiyatlarini bajarmaganlik jinoyatining subyekti bo'lmasligi haqidagi g'oyani ilgari suradi [12; B.123.].

Mazkur holat O'zbekiston Respublikasi JKning 116-moddasi va 117-moddasi subyektlari hamda ularni farqlash haqida turli xil qarashlar va sharhlashlar mavjudligiga sabab bo'lgan, deyish mumkin.

Milliy qonunchilikka nazar tashlaydigan bo'lsak, O'zbekiston Respublikasi "Fuqarolar sog'lig'ini saqlash to'g'risida"gi Qonunining 30-moddasida tibbiyot va farmatsevtika xodimlari fuqarolarga tibbiy yordam ko'rsatishlari shartligi belgilangan. Mazkur Qonun talablari va tadqiqot natijalaridan kelib chiqib, B.A.Mirzaliyev A.V.Naumovanning fikrini qo'llab-quvvatlagan holda kasalga tibbiy yordam ko'rsatish tibbiyot xodimlarining xizmat vazifasiga rasmiy ravishda kirgan yoki kirmaganligining ahamiyati yo'qligini, barcha hollarda tibbiyot xodimlari kasallarga tibbiy yordam ko'rsatishga majburligi va agar ular tomonidan yordam ko'rsatilmasa, kelib chiqqan oqibatga ko'ra ular JK 116-moddasi bo'yicha jinoiy javobgarlikka tortilishi haqidagi fikrni ilgari surgan [13; B.41.].

Shu o'rinda Yu.A.Vlasev tomonidan JKning 116-moddasi subyekti haqida ilgari surilgan fikrlar to'g'ri hisoblanib, tibbiyot xodimlari xizmat yoki kasb vazifalarini bajarmayotgan vaqtda va o'z xizmat vazifalari bog'liq bo'lmagan holda hayoti va sog'lig'i xavf ostida qolgan shaxsga yordam bermaganlarida JKning 116-moddasi subyekti hisoblanishmaydi va bu holatda ularning harakatini JKning 117-moddasi bilan malakalash maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Masalan, shifokor tomonidan ish vaqti hisoblangan navbatchiligida o'z xizmat majburiyatlarini bajarmaganlik ya'ni bemorga tibbiy yordam ko'rsatmaganlik oqibatida bemor vafot etsa, uning qilmishi JKning 116-moddasi bilan malakalanishi mumkin, biroq shifokor tomonidan ish vaqtdan tashqari vaqtda yo'l transport hodisasi jabrlanuvchisiga yordam ko'rsatmaslik holatini JKning 116-moddasi bilan malakalab bo'lmaydi. Chunki JKning 116-moddasi kasb majburiyatlarini bajarmaslik yoki lozim darajada bajarmaslik uchun javobgarlikni nazarda tutib, kasb yoki xizmat vazifasidan tashqari xususan xizmat yoki kasb majburiyati bilan bog'liq bo'lmagan holatlarda javobgarlikni nazarda tutmaydi va yuqoridagi holatda shifokorning harakati JKning 117-moddasi bilan malakalanishi maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz.

Milliy huquqshunos olimlardan E.O.Turg'unboyev kasb yuzasidan o'z vazifalarini lozim darajada bajarmaslik va xavf ostida qoldirish jinoyatlari subyekti haqida quyidagi fikrlarni

ilgari suradi: “JK 117-moddasi va 116-moddasi ikkinchi qismida nazarda tutilgan jinoyatlarning obyekt, obyektiv tomoni va subyektiv tomonining belgilari bir xil bo‘lib, faqat subyektiga ko‘ra farq qiladi. JK 116-moddasi ikkinchi qismi subyekt kasalga yordam ko‘rsatish majburiyati yuklatilgan shaxslar bo‘lsa, JK 117-moddasining subyekt jabrlanuvchini xavfli ahvolga solib qo‘ygan yoki yordamga muhtoj shaxsga yordam ko‘rsatishga majbur bo‘lgan shaxslar hisoblanadi”[14; B.114.].

Bizning fikrimizcha, kasb yuzasidan o‘z vazifalarini lozim darajada bajarmaslik va xavf ostida qoldirish jinoyatlari bir-biridan subyektidan tashqari obyektiv tomoni va subyektiv tomonining belgilari bilan ham farq qiladi va shuni ham aytib o‘tishimiz joizki, ish holatlaridan kelib chiqib, birgina shifokor ham JKning 116-moddasi, ham JKning 117-moddasi subyekt bo‘lishi mumkin. Bu esa birgina jinoyatning subyekt JK 116-moddasi va 117-moddasini farqlovchi jihati emasligini anglatadi.

Milliy huquqni qo‘llash amaliyotida ham kasb yuzasidan o‘z vazifalarini lozim darajada bajarmaslik va xavf ostida qoldirish jinoyatlarini bir-biridan farqlash va to‘g‘ri malakalashda noto‘g‘ri yondashuvlar uchray turadi.

JKning 116-moddasi ikkinchi qismida belgilangan aynan qonun yoki maxsus qoidalarga muvofiq kasalga yordam ko‘rsatishi shart bo‘lgan shaxs va JKning 117-moddasida nazarda tutilgan hayoti yoki sog‘lig‘i xavf ostida qolgan va o‘zini o‘zi himoya qilish imkoniyatidan mahrum bo‘lgan shaxsga yordam berishi shart bo‘lgan shaxslarni farqlashda va mazkur jinoyatlarni malakalashda turli amaliyotni ko‘rishimiz mumkin.

Xususan, ko‘pgina shov-shuvlariga sabab bo‘lgan “Mittivine” taxallusi bilan ijod qilgan blogger F.Mning operatsiya vaqtida vafot etishi bilan bog‘liq holat yuzasidan qo‘zg‘atilgan jinoyat ishi yakuni bo‘yicha “Star Med Center” xususiy klinikasining 2 nafar shifokorlariga nisbatan JKning 116-moddasi 3-qismi va 117-moddasi 2-qismi bilan ayb e‘lon qilinib, ko‘rib chiqish uchun sudga yuborilgan. Jinoyat ishlari bo‘yicha Uchtepa tumani sudining 29.11.2024-yildagi hukmiga asosan A. X. (otolaringolog) va J.Q. (anesteziolog-reanimatolog) JK 117-moddasi 2-qismida nazarda tutilgan jinoyatni sodir etganlikda aybsiz deb topilgan va JKning 116-moddasi 3-qismida nazarda tutilgan jinoyatni sodir etganlikda aybli deb topilib, ularning har biriga JKning 45-moddasini (muayyan huquqdan mahrum qilish) qo‘llagan holda 2 yil tibbiyot sohasida tegishliligi bo‘yicha otolaringolog va anesteziolog-reanimatolog vazifalarida ishlash huquqidan mahrum qilib, 5 yil muddatga ozodlikni cheklash jazosi tayinlangan.

Ushbu holatda biz tergov organi tomonidan tibbiyot xodimlariga nisbatan asossiz ravishda JK 117-moddasi 2-qismi bilan ayb e‘lon qilinganligini guvohi bo‘lishimiz mumkin. Chunki, tibbiyot xodimlari hisoblangan A.X. (otolaringolog) va J.Q. (anesteziolog-reanimatolog) lar kasb egalari bo‘lgan holda bevosita kasblari bilan bog‘liq vazifalarni lozim darajada bajarmaganliklari natijasida odam o‘limi kelib chiqqan va ushbu holat JKning 116-moddaning 3-qismi tarkibini to‘liq qamrab oladi. Shunday ekan, sud tomonidan jinoyat qayta malakalanib, to‘g‘ri kvalifikatsiya qilingan deb hisoblaymiz.

Bundan tashqari, huquqni qo‘llash amaliyoti xar xil ekanligini quyidagi misol timsolida ham ko‘rishimiz mumkin.

Masalan, M.E oliy tibbiy ma‘lumotga va plastik xirurgiya bo‘yicha mutaxassislikka ega bo‘lmagan holda kosmetologiya faoliyati bilan shug‘ullanuvchi “Event Group XMA” MCHJda plastik jarrohlik amaliyoti bilan shug‘ullanib kelib, 24.07.2024 yilda fuqaro Y.Rustamovaga plastik jarrohlik hisoblangan “Brow lifting” amaliyotini SSV tomonidan belgilangan amaldagi

standartlarga zid ravishda o'tkazib, ehtiyotsizlik oqibatida Yu.Rustamovaga o'rtacha og'irlikdagi tan jarohati yetkazgan. Mazkur holat yuzasidan prokuratura organlari tomonidan "Event Group XMA" MCHJ xodimi M.E oliy tibbiy ma'lumotga va plastik xirurgiya bo'yicha mutaxassislikka ega bo'lmaganligi sababli, uning shug'ullangan faoliyatiga kasb sifatida qaralмай JKning 111-moddasi bilan jinoyat ishi qo'zg'atilib, tegishli tergov organiga yuborilgan.

Shuningdek, Chilonzor tumanida joylashgan "Aristokrat" nomli ayollar salonida kosmetolog lavozimida ishlab kelgan va oliy tibbiy ma'lumotga va plastik xirurgiya bo'yicha mutaxassislikka ega bo'lmagan X.U o'zining saloniga mijoz sifatida kelgan K.Nning yuz sohasini toraytirishlik uchun unda jarrohlik amaliyotini o'tkazib, K.Nga o'rtacha og'irlikdagi tan jarohati yetkazgan. Mazkur holat yuzasidan jinoyat ishlari bo'yicha Chilonzor tuman sudining 20.02.2025-yildagi hukmiga asosan X.U O'zbekiston Respublikasi JKning 111-moddasi 2-qismi bilan aybli deb topib, unga JKning 57-moddasi qo'llanilib, bazaviy hisoblash miqdorining 10 baravari 3.400.000 (uch million to'rt yuz ming) so'm jarima jazosi tayinlangan.

Ayni paytda fuqaro M.E va X.U singari oliy tibbiy ma'lumotga va plastik xirurgiya bo'yicha mutaxassislikka ega bo'lmagan, va ma'lum bir kasbda ya'ni "Dilfayz Med Servis" xususiy klinikasida norasmiy shifokor sifatida ishlab kelgan, Buxoro tibbiyot kollejini tamomlab, Abu Ali Ibn Sino nomidagi Buxoro Davlat tibbiyot institutining 4-kurs talabasi hisoblangan fuqaro M.Yaga JKning 116-moddasi subyekti sifatida qaralib, unga ushbu modda bilan ayb e'lon qilingan va jinoyat ishlari bo'yicha Buxoro shahar sudining 09.09.2024-yildagi hukmiga asosan M.Ya JK 116-moddasining 3-qismida nazarda tutilgan jinoyatni sodir etganlikda aybli deb topilib, unga nisbatan 2 yil ozodlikdan mahrum qilish jazosi tayinlangan.

Mazkur deyarli bir xil uch holatda aybdor shaxslar tomonidan ehtiyotsizlik oqibatida muayyan kasbiy faoliyat bilan shug'ullanish orqali jabrlanuvchilarga tan jarohatlari yetkazilgan bo'lsada, aybdor shaxslarning harakatlari turli xil malakalanmoqda.

Bizning fikrimizcha, har bir jinoiy qilmishni to'g'ri malakalash, jazo va boshqa majburlov choralarini qo'llash ortida inson hayoti, qadri-qimmatini, uning manfaatlarini yotganligini hisobga olsak, huquqni qo'llovchi organlar tomonidan yuqoridagi kabi kasb vazifalarini bajarmaslik va xavf ostida qoldirish jinoyatlari subyektlarini tushunishda turli xil yondashuvlarning mavjudligi yaxshi holat emas albatta. Fikrimizcha, JKda kasb tushunchasi va unga qo'yilgan talablarga izoh berilishi huquqni qo'llash amaliyotida yagona amaliyotni vujudga keltirgan bo'lar edi.

Olib borilgan tahlillar shuni ko'rsatadiki, kasb yuzasidan o'z vazifalarini lozim darajada bajarmaslik subyekti barcha hollarda ma'lum kasb egalari bo'lib, ularning javobgarligi kasb yoki xizmat vazifalarini bajarmaslik yoki lozim darajada bajarmaslik natijasida kelib chiqadi. JK 116-moddaning ikkinchi qismida nazarda tutilgan Qonun yoki maxsus qoidalarga muvofiq kasalga yordam ko'rsatishi shart bo'lgan shaxslarning doirasi bevosita ularning kasbiy majburiyatlariga bog'liq bo'ladi. Xavf ostida qoldirish jinoyati (JK 117-moddasi)ning subyekti esa jabrlanuvchiga nisbatan aniq huquqiy majburiyatlarga ega bo'lgan yoki jabrlanuvchini xavf ostida qoldirgan shaxs hisoblanadi.

Shu bilan birga, tahlil davomida o'rganilgan xorijiy davlatlarning ilg'or tajribasiga muvofiq barcha islohotlarning bosh negizi inson, uning manfaatlarini ekanligidan kelib chiqib, xavf ostida qoldirish jinoyatining subyekti sifatida faqat qonunchilik hujjatlarida yordam

ko'rsatishi shart qilib belgilangan shaxslarni emas, balki yordam ko'rsatish imkoniyatiga ega bo'lgan boshqa shaxslarni ham xavf ostida qoldirish jinoyati subyekti sifatida belgilash kerak.

Mazkur turdagi jinoyatlarni kvalifikatsiya qilishda yagona huquqni qo'llash amaliyotini shakllantirish maqsadida JKda 116-modda subyektlarini nomma-nom belgilash maqsadga muvofiq.

Bundan tashqari JK normalarida o'rganilgan ilg'or xorijiy amaliyot va ilmiy-nazariy fikrlardan kelib chiqqan holda "kasb", "kasb vazifalari" va "kasal" tushunchalariga alohida izoh berish kerak bo'ladi.

Adabiyotlar/Литература/References:

1. Karimov X. Jinoyatlarni kvalifikatsiya qilishda jinoyat sub'yekta mezonlarining ahamiyati // Yuridik fanlar axborotnomasi. Ilmiy-amaliy huquqiy jurnal. – Toshkent, 2018. – №2. – B.149-154.
2. M.H.Rustambayev O'zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksiga sharhlar. Toshkent 2021y. B.114.
3. B.A.Mirzaliyev "Tibbiyot sohasida kasb yuzasidan o'z vazifalarini lozim darajada bajarmaslik bilan bog'liq jinoyatlarni kvalifikatsiya qilish masalalari" Magistrlik dissertatsiya ishi. T-2022 y. B.40.
4. Наумов.А.В. Российское уголовное право. Общая часть. — М.: Юристъ, 2021. — С. 132.
5. Бородин С.В. Профессиональная ответственность и преступления по неосторожности. – СПб.: Юридический центр, 2012. – С. 45.
6. O'zbekiston Respublikasi "Fuqarolar sog'lig'ini saqlash to'g'risida"gi Qonuni 30-moddasi // <https://www.lex.uz/acts/26013>
7. Молчанова С.И. Актуальные вопросы оставления в опасности // Вестник ТГУ. – 2008. – 4(60). – С. 430-431. (Molchanova S.I. Current issues of being left in danger // Bulletin of TSU. –2008. – No. 4(60). – pp. 430-431.).
8. Мыц Я.А. Социальные и правовые основания криминализации оставления в опасности // Федерация. – 2005. – № 9 (11). – С. 33-34. (Myts Ya.A. Social and legal grounds for the criminalization of abandonment in danger // Federation. – 2005. – No. 9 (11). – pp. 33-34.)
9. Sh.D.Xaydarov "Xavf ostida qoldirish jinoyatining sub'yekti va uning o'ziga xos xususiyatlari" Huquqiy tadqiqotlar jurnali 9-jild, 9-son, T-2024 B. 70.
10. Александрова Н.Г. Ответственность за оставление в опасности по уголовному праву: Автореф. дисс. ... канд. юрид. наук. – М., 2000. – С.12-13. (Alexandrova N.G. Responsibility for leaving in danger under criminal law: Author's abstract. diss. ...cand. legal Sci. – М., 2000. – P.12-13.).
11. Комментарий к УК Российской Федерации / Под ред. А.В.Наумова. – М.: Норма, 2006. – С. 328.
12. Власев Ю.А. Уголовная ответственность за оставление в опасности: Дисс. ... канд. юрид. наук. – М., 2005. – С. 123.
13. B.A.Mirzaliyev "Tibbiyot sohasida kasb yuzasidan o'z vazifalarini lozim darajada bajarmaslik bilan bog'liq jinoyatlarni kvalifikatsiya qilish masalalari" Magistrlik dissertatsiya ishi. T-2022 y. B.40.
14. Turg'unboyev E.O. Kasb yuzasidan o'z vazifalarini lozim darajada bajarmaslik va xavf ostida qoldirish jinoyatining farq qiluvchi belgilari. / Yosh olimlarning ilmiy maqolalar to'plami. 2010 yil № 1. – B.114.

SCIENCEPROBLEMS.UZ

IJTIMOYIY-GUMANITAR FANLARNING DOLZARB MUAMMOLARI

№ 3 (5) – 2025

АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО- ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

“Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari” elektron jurnali 2020-yil 6-avgust kuni 1368-sonli guvohnoma bilan davlat ro‘yxatiga olingan.

Muassis: “SCIENCEPROBLEMS TEAM”
mas’uliyati cheklangan jamiyati

Tahririyat manzili:

100070. Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Kichik Beshyog‘och ko‘chasi, 70/10-uy. Elektron manzil:

scienceproblems.uz@gmail.com

Bog‘lanish uchun telefon:

(99) 602-09-84 (telegram).